



BOSHLANGICH SINFLARDA INGLIZ TILINI INTERFAOL O'QITISH METODLARI

Ilmiy rahbar: Gapparova M.T.

Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Zulfizar Teshayeva Ixtiyor qizi

Navoiy Davlat Pedagogika institutining 4-kurs talabasi,

Buxoro viloyati shofirkon tumani 20-maktab

Ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o'quvchilarining ingliz tilini o'qitishida innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning erkin fikrlashi, hozirjavobliklari, til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi, darslarda faol qatnashishlari uchun o'qituvchi tomonidan ilgari foydalaniladigan zamonaviy usullar haqida so'z yuritiladi.

Tayanch tushunchalar: boshlang'ich ta'lim, grammatika, zamonaviy metodlar, fonetika

MODERN TEACHING METHODS OF ENGLISH LANGUAGE IN PRIMARY SCHOOL

Scientific adviser:

The teacher of NSPI Gapparova M.T.

Zulfizar Teshayeva Ixtiyor qizi

The senior student of Navai State pedagogical institute,
teacher of Bukhara region Shafirkan district 20st school.

Abstract: This article discusses innovative approaches to teaching English language in primary schools, modern methods used by teachers for students to think freely passion for language learning, active participation in lessons.

Key Words: primary school, phonology, grammar, modern methods, phonetics.

KIRISH. Bugungi kunda xorijiy tilga talab kundan kunga oshib bormoqda. Turli sohalarda, iqtisdiyot, fan va madaniyat, xususan ta'lim sohasida ingliz tiliga katta e'tibor qaratilyapti. Shu sababdan, 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi hamda 2013—2014 yildan boshlab umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni uzluksiz o'rgatishning joriy etilishi buning yaqqol isbotidir.[1] Hozirgi innovatsion



va texnologiya rivojlangan davrda, zamonaviy metodlar bilan o'qitadigan pedagoglar talab qilinyapti. Chunki zamonaviy usullar va texnologiyalar o'quvchilar tilni tez o'zlashtirib, qiziqarli bo'lishiga zamin yaratadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari asosan diqqatni tortadigan, rasmlı, visual materiallar va tarqatmalar orqali tilni osonroq va tezroq o'zlashtirib olishadi. Turli xil rangli rasmlar orqali, ularning ingliz tilida so'zlashish qobilyatini o'stirishda visual o'yinlardan foydalanish lozim. Masalan, Bu nima?, Bu kim?, Bu qaysi rang, "Rasmdan foydalanib gap tuzamiz" kabi o'yinlardan foydalanish mumkin. Bolalar o'yin jarayonida so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish bilan birga ularni tezda eslab qolishadi. Va o'qituvchi bolalarni qay darajada ko'p sozni yodda saqlab undan foydalanganiga qarab rag'batlantirishi lozim. Chunki har bir rag'batlantirish yosh o'rganuvchining ruhiyatiga ta'sir qilib, darsda faol qatnashishiga turtki bo'ladi. Bolalarning til ko'nikmalari ancha rivojlangandan so'ng boshqa turdagi o'yinlar tashkil etish, xorijiy tilni o'rganishdagi ishtiyoqini va bilimini yanada oshiradi. Masalan so'z zanjiri (**chain drill**)

1-o'quvchi: I like sewing. (yonidagi o'quvchi tomon buriladi)

What about you?

2-o'quvchi: I like reading books. (yonidagi o'quvchi tomon buriladi)

What about you?

3-o'quvchi: I like drawing. (yonidagi o'quvchi tomon buriladi)

What about you? va h.k.

Jarayonni tezlashtirish uchun o'qituvchi Zanjir mashqini qatorlarda tashkil etishi mumkin.[2]

Yangi mavzuni namoyish etish bosqichida o'qituvchi texnologiyalardan, kamida komyuterdan foydalanishi kerak. Chunki til o'rganuvchilar asosan boshlang'ich sinf o'quvchilari tezda fandan zerikib qolishlari mumkin. Buni natijasida topshiriqlarni bajarmaydi va fanga nisbatan qiziqishlari asta sekin so'nib boradi. Zamonaviy texnologiyalar bilan darsni boyitish o'ziga xos afzalliklari mavjud. Xossatan, o'quvchilar zamon bilan birgalikda hamnafas bo'lishga intilishadi va rivojlanishadi. Masalan, yangi mavzu doirasida ekrandagi yozuv yoki rasmni ko'rib, uni ham talaffuzini, ham nimaligini eslab qolish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ya'ni Tinglash va takrorlash mashqlari (**Listen and repeat**) samarali foyda beradi.

Tinglash va takrorlash mashqlari ko'pincha yangi so'zlarni rasmlar bilan solishtirish mashqlaridan keyin yoki o'quvchilar so'z yoki so'z birikmalarining ma'nosini bilib olganidan so'ng bajariladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, yangi so'z



yoki qurilmalarning ma'nosini bilmasdan turib ularni tinglab takrorlagandan ko'ra, o'quvchilar ma'noni bilganlaridan so'ng ularni tinglab takrorlasa yaxshiroq esda saqlab qolishadi.[3]

Bundan tashqari, kichik yoshdagi til o'rganuvchilarga so'zni to'g'ri talaffuz qilishni orgatish lozim. Ayni paytda ko'pgina oqtuvchilar an'anaviy usulda dars o'tishga moslashib qolgan, yani boshlang'ich sinf oquvchilariga birinchi kunlardan Grammatik qoidalarni tushuntirishadi va uyga vazifa tariqasida so'z yodlashni berishadi. Bolalar esa so'zlarni o'zlari talaffuz qilgan shaklda uni qayta-qayta takrorlab, shu holicha esda saqlashadi. Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh deganlaridek, o'qtuvchi keyinchalik bu xatoni to'g'irlashi ancha mushkul. Shu sababdan boshlang'ich sinf o'quvchilari har qanday tilni fonetikadan boshlashi kutilgan natijalarga olib keladi. Albatta o'quvchi uchun harflarni bitta-bitta talaffuzinigina o'rganish qiziqarli emas, ammo tadqiqotlar shuni korsatadiki, har bir yosh til organuvchisi so'zni ma'nosini va mohiyatini tushungandan so'ng uni talafuzini o'rganish osonroq va samaraliroqdir. Buning uchun multimediali har qanday mashg'ulotlar o'quvchi uchun tilni yaxshi o'zlashtirishi uchun samara bera oladi.

Bilamizki, bugungi kunda xorijiy tilga e'tibor va talab katta. Nafaqat maktablarda balki maktabgacha ta'lim sohasida ham chet tilini talab va targ'ib qilishlari buning tasdig'idir. Bilimga chanqoq yosh avlodni til o'rganishga qiziqtirish har bir o'qtuvchidan katta kuch va mehnat talab qiladi. Albatta darsda interfaol o'yinlar tashkil qilish va o'z navbatida passiv o'zlashtirayotgan o'quvchini va darsga qiziqmaydigan o'quvchini jalb qilish har bir pedagog oldidagi katta vazifa hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda darsning shovqinli bo'lishi ba'zi o'qtuvchini dars o'tishiga xalaqit berishi mumkin, ammo bunga yaxshi fikr bilan qarash kerak. Tabiiyki, guruh bilan ishlanganda va o'quvchilar faol qatnashganda sinf shovqinli bo'ladi. Bundan tashqari, o'quvchiga ko'rsatmani to'g'ri berib, mavzu tushunarli bo'lsa, ortiqcha shovqinlarsiz dars maroqli o'tadi.

Bolalarda topishmoqlarning javobini topishga qiziqish kuchli. Shuning uchun o'qituvchi topishmoqni ingliz yoki o'zbek tilida aytsada, uning javobini bolalardan ingliz tilida aytishini talab qilishi lozim. Shunda bolalar so'zlarni tez o'rganishadi.[4] Bu usul bolani ham mantiqan fikrlashiga va tezligini oshirishga yordam beradi. Hatto umuman fanga qiziqmaydigan o'quvchining ham fikrlash qobiliyati kuchli bo'lsa, uni ingliz tilida aytishga harakat qiladi.



Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga tilni majburiy o'qitish emas balki ularni fanga qiziqtirgan holda, interfaol o'yinlar bilan o'qitgan maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.[1]
2. Lutfullo Jo'rayev, Ludmila Kamalova, Svetlana Xan Teens' English 6 O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2018 5-6-bet [2], [3]
3. Turdaliyeva G.N "Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar"// 2020 . [4]